

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI OROLBO'YI MINTAQASIGA MOS KELADIGAN NOK NAVLARI VA PAYVANDTAGLARNI TANLASH

Yusupova Malohat Sadillaevna

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI 3-bosqich doktaranti (PhD)

Reypnazarova Gulperiyazat Nukusbayevna

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI 1-bosqich doktaranti (PhD)

Gulperiyazat.@gmail.com

Seytmuratova Gulshexra

Qqxai 4-bosqich Mevachilik va uzumchilik yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada nokni ko'paytirishda kurtak payvand qilish usuli keng qo'llanilishi, Ko'chatxonada nokning yovvoyi turlari va madaniy navlari urug'laridan ekilishi, urug' ko'chatlar va klon payvandtaglarni parvarish qilinishi, turli o'suvchi payvandtaglarda nok navlari kurtaklarining qish faslidagi jarayonlarining ta'siri ham qayd etildi.

Kalit so'zlar: kurtak, payvantag, payvando'st, Xon nashvatsisi, Olive de Serr navi, Almurt, Behi A variant

Аннотация: В научной статье широко применяется метод прививки почками при размножении груши, отмечено также посадка диких и культурных сортов груш из семян в питомнике, уход за семенными сеянцами и клоновыми прививками, также влияние отростков почек сортов груш в зимний период на разные прививки.

Ключевые слова: почка, прививка, растение Хана, сорт Оливы де Серр, Альмурт, Айва вариант А.

Abstract: In the scientific article, the method of bud grafting is widely used in the reproduction of pears, the planting of wild species and cultivated varieties of pears from seeds in the nursery, the care of seed seedlings and clone grafts, the effect of the processes of buds of pear varieties in the winter season in different growing grafts were also noted.

Key words: bud, grafting, grafting, Khan's plant, Olive de Serre variety, Almurt, Quince A variant.

O'zbekiston iqlim sharoitining barcha mevali ekinlar o'sishiga qulay, bu yesa o'z o'rnida biz olimlardan tez hosilga kiruvchi va yuqori hosildor intensiv tipdag'i urug'li mevalar ko'chatlarini yetishtirish hamda ularning intensiv bog'larni barpo qilishni taqazo yetadi. Bog'dorchilikni rivojlantirish bir tomondan mamlakatimiz iqtisodini rivojlantirishga hissa qo'shsa, ikkinchi tomondan xalq ijtimoiy holatini ko'taradi. Bu boradagi ishlarni rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2020 yil 9 martdagи “Ilmiy-tadqiqot va Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 133-son qarori belgilangan tartibda ilmiy-tadqqot ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi zamonaviy intensiv bog‘larning barchasi urug‘li mevalar Nok va nok ekinlaridan tashkil topgan, ularning pakana va yarim pakana vegetativ ko‘payuvchi payvandtaglari keng miqyosida etishtirilib kelinmoqda. erishilgan yutuqlar bilan birgalikda sohada hali talaygina bajarilishi kerak bo‘lgan tadbirlar o‘z yechimini kutmoqda. Shulardan biri intensiv tipdagi urug‘li mevalar ko‘chatlarini yetishtirish hamda urug‘li mevalar intensiv bog‘larni barpo qilish dolzarb masaladir.

Tadqiqotni olib borish sharoiti va uslubi. Tajribalar Tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar 2024-yildan boshlab Qoraqolpog‘iston Respublikasi Kegeyli tumanida joylashgan Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Kegeyli ilmiy tajriba stantsiyasining dala tajriba maydonlarida o‘tkazildi.

Mevali o‘simliklar navlarini o‘rganish, umum e’tirof yetilgan uslublar asosida olib borildi. “Mevali, rezavor, subtropik, yong‘oqmevali va uzum kollektsiyalari navlarini o‘rganish dasturi va uslubi” (Leningrad, 1970), X.Ch.Buriyev va boshqalarning «Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» (2014), V.F.Moyseychenkoning «Методика учетов и наблюдений в опытах с плодовыми и ягодными культурами» nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiyalarga muvofiq o‘tkazilgan.

Meva ekinlarida, jumladan nokni ko‘paytirishda kurtak payvand qilish usuli keng miqyosda qo‘llaniladi. Ko‘chatxonada nokning yovvoyi turlari va madaniy navlari urug‘laridan ekilib, urug‘ ko‘chatlar va klon payvandtaglari parvarish qilindi. Ko‘chatxonada ishlab chiqarish talablariga asosan payvand qilingan kurtakning tutishi, payvandtagni aniqlash, payvandlashga tayyorgarlik, payvandustning to‘g‘ri tanlangani, o‘simliklarni tutib ketishi jarayonlari aniqlab borildi.

Payvandust kurtaklarni Xon nashvatisi payvandtagiga payvand qilinganda kurtaklarning yaxshi saqlanib qolishi kuzatildi. Payvandust kurtaklarning Xon nashvatisi nokning Olive de Serr navini kuzgi payvand qilingandan 15 kundan keyin aprobatsiya o‘tkazilganda tutmagan kurtak 9,7% ni tashkil qildi. Barcha payvandtaglardagi payvandlangan kurtaklarni nobud bo‘lishining o‘rtacha ko‘rsatkichi 10,8% ni tashkil qildi.

O‘rganilgan Xon nashvatisi va Almurt payvandtag namunalari kurtaklarni nobud bo‘lishi o‘rtacha ko‘rsatkichdan kam bo‘lganligi kuzatildi. Xon nashvatisi variantiga nisbatan 121,8 va 126,0% ga kurtaklarning ko‘p nobud bo‘lishi Behi A va Yurt nashvatasi payvandtaglarida sodir bo‘ldi. Behi A variantida Olive de Serr navida 11,7% kurtaklar nobud bo‘lgan bo‘lsa, o‘rganilayotgan ikkinchi mahalliy nav Zimnyaya

nashvat navida 12,7% ni yoki 8,7% ga ko‘p bo‘lganligi aniqlandi. Barcha payvandtag namunalarining o‘rtacha ko‘rsatkichi 14,2% ga teng bo‘lgan bo‘lsa, unga nisbatan Almurt va Behi A variantlarida kam bo‘lganligi aniqlandi. Behi A variantiga nisbatan payvand qilingan Yurt nashvatasi va Almurt payvandtag namunalarida 128,3 va 143,3% ga kam nobud bo‘lishi sodir bo‘ldi.

Turli o‘suvchi payvandtaglarda nok navlari kurtaklarining qish faslidagi jarayonlarining ta’siri ham qayd etildi. Payvandtaglarga bog‘liq ravishda qish davridagi ob-havoning ta’siri natijasida nobud bo‘lgan payvandust kurtaklar miqdori mos holda nokning Olive de Serr va Zimnyaya nashvat navlarida 7,3-25,1% atrofida bo‘ldi (1-jadval).

Turli o‘suvchi payvandtaglarda nok navlari kurtaklarining tutuvchanligi

(Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Akademik M.Mirzaev nomidagi BU va VITI Kegeyli ilmiy tajriba stantsiyasi, 2024 y.).

Payvandtag	Olive de Serr			Zimnyaya nashvat		
	nobud bo‘lgan kurtak,%					
	kuzgi	bahorgi	jami	kuzgi	bahorgi	jami
Xon nashvatasi (nazorat)	11,7	25,1	36,8	12,7	18,4	31,1
Almurt	9,6	7,3	16,9	9,7	8,9	18,6
Yurt nashvatasi	12,1	17,3	29,4	16,3	19,4	35,7
Behi A	9,9	10,7	20,6	18,2	19,9	38,1

Payvandust kurtaklarning kuz-qish davrida saqlanishi payvandtaglarning turiga bog‘liqligi quyidagicha bo‘ldi. Nokning Olive de Serr va Zimnyaya nashvat navlarida payvandtag turlarini payvandtag bilan payvandust o‘zaro mutonosibligi o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xon nashvatasi payvandtagida Olive de Serr va Zimnyaya nashvat nav namunalarida kurtaklarning miqdori 83,1% ni tashkil qildi. Unga nisbatan Xon nashvatasi payvandtagida payvandust kurtaklarining kuz – qishki davrlarda saqlanib chiqishi Almurt payvandtagida 79,4% bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich nazoratga nisbatan 3,7% ga kam bo‘lganligi aniqlandi.

Nokning Olive de Serr nashvat navini kurtak payvand qilinganda, payvandtag turlari bo‘yicha saqlanuvchanligi kuzgi tekshiruvda nobud bo‘lgan kurtaklari bo‘yicha variatsiya koeffisenti ($V=8,2\%$) kam bo‘ldi. Raqamlarning o‘rtacha kvadrat og‘ishi $X=10,8\pm3,9\%$ ni tashkil qildi.

Turli o'suvchi payvandtaglarda nok navlari kurtaklarining tutuvchanligi
 (Qoraqolpog'iston Respublikasi, Akademik M.Mirzaev nomidagi BU va VITI
 Kegeyli ilmiy tajriba stantsiyasi, 2024 y).

Payvandtag	Olive de Serr			Zimnyaya nashvat		
	nobud bo'lgan kurtak,%					
	kuzgi	bahorgi	jami	kuzgi	bahorgi	jami
Xon nashvatisi (nazorat)	11,7	25,1	36,8	12,7	18,4	31,1
Almurt	9,6	7,3	16,9	9,7	8,9	18,6
Yurt nashvatasi	12,1	17,3	29,4	16,3	19,4	35,7
Behi A	9,9	10,7	20,6	18,2	19,9	38,1

Payvandtag turlarini payvandust kurtak tutuvchanligiga ta'siri bo'lib qolmasdan, hattoki shartli ko'chatxona maydonidan olinadigan ko'chat soniga ham ta'siri bo'ldi

XULOSALAR Almurt payvandtagiga nokning Olive de Serr navini kurtak payvand qilinganda nobut bo'lgan kurtaklar, 16.9 % ni tashkil qildi. bu esa nazoratga nisbatdan olganda kurtaklarning tutuvchanligi 19,9% ko'proq ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Mirziyoev Sh. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora tadbirlari tog'risida" PQ-4575-son qarori. –Toshkent, 2020 yil 28-yanvar.
- Ostanaqulov T.E., Islamov C.Y., Xonqulov X.X., Sanaev S.T., Xolmirzaev D.K., "Mevachilik sabzavotchilik" S., 2011-y 232-250 b
- Rajametov Sh., Abrorov Sh "Zamonaviy intensiv nok bog'larini yaratish va parvarishlash texnologiyasi" Toshkent "Bakteria press", 2018. b – **11-80**
- Aripov A.U., Aripov A.A., "Urug'li intensiv meva bog'lari" Toshkent: "Sharq", 2013 –b 108-121.